



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.Qodiriy nomidagi JDPI Tabiatshunoslik va geografiya
fakulteti

Geografiya va IBA yo'nalishi
Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Avstraliya materigining tabiiy geografik o'lkalari



Topshirdi:

Qo'shboqov Nurislom

Qabul qildi:

Toshboyev Zafar

Jizzax 2013 yil

MAVZU: Avstraliya materigining tabiiy geografik o'lkalari

KIRISH:

I BOB: Avstraliya materigining umumiy, tabiiy geografik hususiyatlari

- 1.1 Avstraliya materigining geografik o'rni va qirg'oq qiyofasi
- 1.2 Avstraliya materigining geologiyasi va reliefi
- 1.3 Materik o'rganilish tarihi

II BOB: Avstraliya materigiiqlimi, tabiiy geografik o'lkalarining floristik va faunistik hususiyatlari

- 2.1 Materik iqlimining hosil bo'lish hususiyatlari va iqlimning o'lkalardagi ahamiyati
- 2.2 O'simliklar dunyosi
- 2.3 Hayvonot dunyosi

III BOB: Avstraliya materigining tabiiy geografik o'lkalarga bo'linish prinsiplari.

- 3.1 Sharqiy Avstraliya tog'lari
- 3.2 G'arbiy Avstraliya tabiiy geografik o'lkasi
- 3.3 Markaziy pasttekislik tabiiy geografik o'lkasi

Adabiyotlar:

Xulosa

KIRISH

Hurmatli talabalar sizlar “Materiklar va okeanlar” tabiiy geografiyasi fanidan har bir materikning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, tabiati, tabiat zonalari, floristik va faunistik dunyosi, dengizlari, ko’llari, yirik daryolar va shu kabi tabiiy xususiyatga ega bo’lgan bilimlarga ega bo’lgansiz.

Bu bo’limda siz Avstraliya materigi haqida bilimlaringizni yanada kengaytirishingiz mumkin. Bu bo’limda yana siz Avstraliya materigining geografik o’rni, uning kattaligi va qiyofasi, materikni o’rab turuvchi okeanlar va dengizlar, tekshirilish tarixi, qachon va qanday paydo bo’lganligi, reliefi, tabiiy sharoiti, iqlimi, tabiiy xususiyatlari, qazilma boyliklari, flora va faunasi hamda tabiiy geografik o’kalari, quruqlikdagi suvlari, tabiat zonalari haqidagi, materikning ayrim yirik qismlari, ularning o’ziga hos xususiyatlari haqida chuqurroq bilimlarga ega bo’lasiz.

Avstraliya materigining geologik strukturasi boshqa materiklarga nisbatan oddiyroq. Unda eng qadimgi (kembriidan ilgari) va gertsin burmali mintaqasi ajratiladi. Bu jihatdan Avstraliya materigi o’ziga hos, hamda bu mavzuda bu unsurlarga yanada chuqurroq ma’lumot olishingiz mumkin

Iqlimida materik ko’pchilik qismining iqlimi kontinentalligi, Materikning quruq va nam havo massalarining qonuniy almashinuvi, ichki oblastlariga shimoldan va janubdan bazan juda ichkari kiradigan dengiz havosi (tog’larning yo’qligi shunga imkon beradi) tez isib quriydi va buning sabab va oqibatlari to’liqroq yoritib berilgan.

Materikning **o’simliklar qoplami** to’grisida o’zi vujudga kelgan paleogeografik xususiyatlarni ham, hozirgi zamondagi gidrotermik sharoitni ham aks ettirishga alohida e’tibor berilgan. Boshqa materiklarga nisbatan turjihatdan, endemik turlarning ko’pligi, o’zgacha materik ekanligi yoritilgan.

Hayvonot dunyosida boshqa materiklardan tubdan tur jihatdan farq qilishini, o’lkalrdagi hayvonot dunyosining turlari, tarqalish arealiva bir biriga bog’liqligi, farqini bilib olasiz.

Bu bolimda asosan Avstraliya materigining tabiiy geografik o'lkalariga alohida urg'u berilgan. Avstraliyani tabiiy regionlarga ajratishda uchta struktura morfologik viloyat-G'arbiy plato, Markaziy pasttekislik va Sharqiy Avstaliya tog'lari yaqqol aks etganligiga etibor berilgan. Ularning har birida Avstraliya muhitining paleogeografik taraqqiyoti jarayonida shakllangan landshaftlarning zonal xususiyatlari alohida-alohida yuzaga chiqadi, shunday qilib, regionlardan har birini materikning mustaqil tabiiy geografik o'lkasi deb qarasa bo'ladi. Huddu shu omillar hisobga olinib materik tabiiy geografik o'lkalarga bo'lib, batafsil aniq va to'liq qilib berilishiga harakat qilingan.

O'lkalarning geologiyasi, reliefi, tabiat zonalari, tuproqlar, daryolari, ko'llari, o'simlik va hayvonot dunyosi, iqlimi haqida to'liqroq va batafsilroq yoritilgan.

Bu bo'limni o'qib ko'zdan kechirib chiqsangiz, Avstraliya materi haqidagi bilimlaringiz, tasavvurlaringiz ancha kengayadi.

Avstraliya materigining o'ziga hosligi, boshqa materiklardan tubdan farq qilishini bilib olasiz. Materik uzoq vaqt boshqa materiklardan alohida hayot kechirganligini, odamlar ommaviy ko'p yashamaganligi va bu omillarning flora va founasining shakllanishida asosiy ro'l o'ynaganligini bilib olasiz.

Avstraliya materigi qirg'oqlari Janubiy yarimsharda joylashgan materiklar qirg'oqlaridan farq qilishi va u qanday shakllanganli, o'sha materiklar bilan qachon aloqadan uzulganligi va bu uzilish oqibatlari haqida bayon qilingan.

I-BOB: Avstraliya materigining umumiy, tabiiy geografik hususiyatlari

Avtraliya –yer sharidagi eng kichik materikdir. Uning maydoni atiga 7.6 mln. kv km. shuning uchun Avstralya materigini ba‘zan materik orol deb ham ataydilar. Antarkdida singari, Avstralya ham butunlay janubiy yarim sharda joylashgan (lotincha *australis*–“janubiy” degan ma‘noni bildiradi)

1.1 Geografik o‘rni. Avstraliya-eng kichik materik. Maydoni 7631,5 ming km² bo‘lib, Evropa maydoninig qariyb $\frac{2}{3}$ qismiga yaqinini tashkil etadi. Materikning eng shimoliy nuqtasi York burni 10° 41’ janubiy kenglikda, eng janubiy nuqtasi-Janubiy sharqiy burun 39° 11’ janubiy kenglikda. Materik g‘arbdan sharqqa qarab 4100 km masofaga (113°05’ sharqiy uzunlikdagi Stip-Poynt burnidan 153°43’ sharqiy kenglikdagi Bayron burnigacha) cho‘ziladi, shimoldan janubga tomon quruqlikning eng serbar joyi atiga 3200 km.

Avstraliya qirg‘oqlarining qiyofasi. Afrika qirg‘oqlari singari, Avstraliya materigi qirg‘lari ham uncha parchalangan emas. Qirg‘oq chizig‘i biroz egri bugri. Yirik qo‘ltiqlari faqat ikkita. U ham bo’sa Karpentariya va Katta Avstraliya q‘ltiqlaridir. Bass bo‘g‘ozi Tasmaniya orolini materikdan ajratib turadi. Avstraliya, Tasmaniya oroli va Tinch okeani bilan Hind okeanidagi boshqa kichik orollar Avstraliya ittifoqi hududini tashkil qiladi.


Avstraliyaning sharqiy soholida Katta Bar‘er rifi bor, bu rif York burnidan tropikka qadar deyarli 2000 km masofaga cho‘ziladi. Rifning eni shimolda 2 km ga yaqin bo‘lib, janub tomonda 150 km ga yetadi. Rif qirg‘oqdan 50 km gacha quruqlikdagi laguna bilan ajralgan. Bu laguna ham janubga tomon kengaya boradi. Katta Bar‘er rifi kambar yo‘laklari bilan bo‘lingan. Shunga ko‘ra, okean parohodlari ochiq okeandan qirg‘oq ichkarisidagi tinch suvlarga kirib tura oladi.

1.2 Geologiyasi va rel‘efi. Avstraliyaning geologik strukturasi boshqa materiklarga nisbatan oddiyroq. Unda eng qadimgi (kembridan ilgarigi) va gertsin burmali mintaqasi ajratiladi.

Materik maydonining $\frac{2}{3}$ qismi-G‘arbiy plato va deyarli butun Markaziy past tekislik kembriydan oldingi platformadan iborat. Platformaning g‘arbiy qismi

qadimgi poydevor antiklizasidan iborat bo'lib, shu yerda eng qadimgi poydevor sineklizasidir. Eng qadimgi negiz shu yerda cho'kkan bo'lib, mezazoy (asosan bor), paleogen, neogen dengiz va ko'l yotqiziqlari qatlami bilan berkilgan.

Gertsin burmali strukturali materikning sharqiy tog' mintaqasini tuzadi. Bu mintaqaning tuzulishida paleozoy burmali cho'kindi svitalaridan tashqari turli davrlarda hosil bo'lgan vulkanik va intruziv jinslarishtirok etadi.



1-rasm. Avstraliyaning geologik tuzilishi sxemasi.

1-pliotsen; 2-miotsen; 3-bo'r davri; 4-yura davri; 5-trias davri; 6-perm davri; karbon davri; 8-devon davri; 9-silur davri; 10-kembriy davri; 11-eng qadimgi davr (dokembriy); 12-granitlar va gneislar.

Avstraliya platformasi o'zini g'arb va sharq tomondan o'rab turuvchi geosinklinallardagi tektonik harakatlar tufayli yorilib tebranib turgan.

G'arbiy Avstraliya geosinklinali eng qadimgi zamonda (kembriydan ilgari) vujudga kelgan bo'lib, janubiy yarim shardagi quruqlikning arxei va proterozoy yadrolarini o'rab turgan juda katta geosinklinal zonaning bir qismi edi. Quyi

paleozoy burmalari va shu zonada ro'y bergan tebranma harakatlar natijasida Avstraliya, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikaning eng qadimgi platformalari quruqlik orqali bog'lanib turgan, bu bog'lanish paleozoy erasida va mezazoy erasining birinchi yarmidaham davom etgan. Yorilish natijasida Avstrliya Afrikadan, Janubi-sharqiy Osiyodan faqat bor davrida ajaralib ketgan.

Sharqiy Avstraliya yoki Tasmaniya geosinklinalida quyi paleozoy burmalardan tog'li o'lka vujudga kelgan. Bu o'lka g'arbda tekislangan Avstraliya platformasiga yondoshgan, sharqda esa materikning hozirgi qiyofasidan ancha tashqariga chiqqan.

Ammo tog'larning shakillanishida yuqori paleozoy burmalari katta ro'l o'ynaydi. Shu burmalanish natijasida tog'li quruqlikning juda katta uchastkasi, ya'ni Tasman va Marjon dengizlari o'rtidagi Tasmantis dengizi sathidan ko'tarilib qolgan.

Paleozoy erasining oxiridan boshlab, Tasmantis quruqlik uchastkasi sekin-asta tebrangan, mezazoy boshlarida markaziy pasttekislik bukilgan. Shuning natijasida dengizlar quruqlikka bosib kelib, keng ko' havzalari hosil bo'gan. Bu havzalarda ohaktosh va gil-qum qatlamlari cho'kkan. Dengoz va ko'llar Avstraliyaning tekislangan g'arbiy quruq uchastkasini sharqdagi tog'li o'lkadan uzoq vaqt ajratib turgan. Materikning umuman ko'tarilishi tufayli bo'r davrining oxirda dengizlar chekingan, ko'llar sayozlanib, qurib qolgan.

Avstraliyada kembriydan oldin hosil bo'lgan eng qadimgi strukturalar va Tasmantisdagi gersin tog'larining shimoli hamda sharqiy chekkalari Alp geosinklinali bilan o'ralgan. Bu geosinklinaldagi tektonik harakatlar tufayli bo'r davrining ohirida Avstraliya Janubi-Sharqiy Osiyodan yakkalanib qolgan, suvga cho'kmay qolgan Yangi Zellandiya strukturalaridan ham yakkalanib qolgan.

Alp geosinklinalida katta burmalar neogen davrida hosil bo'lgan. Yangi Gvineya, Yangi Zellandiya bilan tog'lari va ularning orasidagi tog'lik orollar qad ko'targan. Avstraliya va Tasmantisning qattiq negizlardagi burmalanish natijasida yoriqlar vujudga kelgan, vulkanlar otilgan, sekin-asta bukilish va ko'tarilish hodisalari ro'y bergan.

Materikning g'arbiy uzulma chekkasi ko'tarilgan. Tasman yerida yoriqlar bilan o'ralgan kimmberli gorst masivi ajralib chiqqan. Torrens ko'lining grabeni Flinders-Lofti gorst tizmalarini g'arbiy platonong janubi-g'arbiy chekkasidan ajratib yuborgan.

Sharqda relef, shuningdek materik maydoni va qiyofasi ko'proq o'zgargan. Yorilish chiziqlari bo'ylab Tasmantisning g'arbiy chekkasi Tinch okeani tubiga cho'kkan, suvga botmay qolgan kattagina g'arbiy qismi yuqori ko'tarilgan, natijada Sharqiy Avstraliya tog'lari hosil bo'lgan. Bu tog'larda qadimgi jinslar basalt qatlamlar bilan qoplangan, bu qatlamlar markaziy va janubiy tizmalarda ayniqsa katta maydonlarni egallaydi.

To'rtlamchi davrda materikning chekka qismlari sekin-asta tebranishda davom etgan. Tasmaniya va Yangi Gvineya materikdan uzil kesil ajralib ketgan. Sohildagi ayrim tog'li uchastkalarining cho'shi natijasida Tasmaniya orolida, materikning shimoli g'arbida juda mayda kungurali qirg'oqlar vujudga kelgan.

Avstraliya rel'efining harakteri shu rel'efni tuzuvchi strukturalarning qadimiyligiga va peneplenlashish natijasida juda katta hududlar tekislanib qolgan, shunga ko'ra rel'efda hayron qolarlik darajada bir hillik diqqatni jalp etadi. Materik o'rtacha balandligi 350 m keladigan plato'dan iborat, ya'ni Yevropadan keyin eng past quruqlik hisoblanadi. Ilgarigi vaqtdagi eng baland satxlardan yassi tepali orolcha tog'lar (cho'kindi svitalar yotgan joylarda) va o'tkir cho'qqili massivlar saqlanib qolgan.

Bo'r davrining oxiridan neogen davrigacha o'tgan davrda tekislangan tekislik-*Buyuk Avstraliya peneplenining* maydoni hammadan katta. Bu peneplenining balandligi G'arbiy platoda 300-500 m bo'lib, Markaziy pasttekistlikda 200 m dan oshmaydi va Shaqiy Avstraliya tog'larida 700-1500 m gacha ko'tariladi. Shu tog'larda bir xil balandlikda yassi tepali massivlar uchraydi.

Tekislangan yuzalarning jumladan Avstraliya peneplenining keng tarqalganiga va yahshi saqlanganiga sabab shuki, quruqlikning vertical harakatlari sekinlik bilan ro'y bergan va rel'ef asosan cho'l iqlimi sharoitida kamroq parchalangan, shuningdek himoya pardalari saqlanib qolgan.

Temirli va kremniyli himoya pardalari asosan neogen davridan boshlab saqlangan, chunki bu davrda ana shu pardalarning vujudga kelishi zarur iqlimiy sharoit-juda issiq va mavsumiy nam sharoit mavjud bo'lgan. Ohaktosh, gips va sulfatlardan tarkib topgan homoya pardalari neogen davriningoxiridagi quruq va issiq iqlimgda hosil bo'la boshlagan. Bu jarayon Avstraliyaning ichki rayonlarida hanuz davom etmoqda.

To'rtlamchi davrning plyuvial zamonlaridagi qisqa muddatli namgarchilik va sovish tufayli rel'efning erosion formalari (daryo vodiylari, ko'l qozonsoylari va hokazo) vujudga kelgan, bu formalar hozirgi zamondagi cho'l oblastlarida saqlanib qolgan. Muzlik skulptura formalari, shuningdek muzlik akkumulyatsiyasining relefi faqat Avstraliya Alp tog'lariga harakterlidir. Avstraliya Alp tog'lari Tasmaniya orolidan tashqari to'rtlamchi davr muzliklari bo'lgan yagona rayondir.

Avstraliyaning tektonik tuzilishi hususiyatlariga yarasha materikda uchta struktura-morfologik oblast: G'arbiy plato, Markaziy pasttekislik va Sharqiy Avstraliya tog'lari ajratiladi.

Avstraliya rel'efi oddiy bo'lib, Afrika relefiga o'hshaydi. Materikning g'arbiy yarmi *G'arbiy plato* bilan band, bu platoga keng *Markaziy pasttekislik* yondoshgan. Ana shu palasa Karpentariya bo'g'ozidan hind okeanigacha davom etadi. Materikning sharqiy chekkasida *Sharqiy Avstraliya* tog'lari degan tog'lar kambar polosa bo'lib turadi.

G'arbiy plato-shakli jihatidan eng qadimgi poydevorning anteklizasiga umuman mos keladi. Bu plato Buyuk Avstraliya peneplenining sal-pal parchalangan sirtidan iborat bo'lib, o'rtacha balandligi 300-500 m. Platoning sharqiy chekkasida *makdonnel* va *masgreyv* tizmalarining denuzatsiyada ajralib ketgan kristall sirlari qad ko'tarib turadi (G'arbiy platoning eng baland nuqtasi Vudroff tog'i-1594 m). G'arbiy chekkada yassi tepali keng qoldiq massivlar bor (Xamersli tizmasi ...). Uzilma chizig'i bo'ylab qirg'oq bo'yidagi kambar pasttekislikka tikka tushuvchi janubi – g'arbiy chekkasi *Darling* tizmasi deb ataladi. G'arbiy platoning shimoli-g'arbiy chekkasi Kimberli gorst massivi bilan o'ralgan. Shimol tomonda plato Arixemlend yarim orolida tugaydi.

Platoning ichki rayonlaridagi juda katta maydonlar qumli va toshloq cho'llaridan iborat. Qumli cho'llar - *Katta Qumli cho'l* va *Katta Viktoriya cho'li* G'arbiy platoning shimoliy va janubiy yon bag'irlarida bo'lib, ularning orasida toshloq *Gipson cho'li* bor. Janubi – g'arbda ko'l qozonsoylari to'planib qolgan. Bular to'rtlamchi davrdagi sernam zamonlarning shohidlaridir. Janubda *Nallarbor* pasttekisligi ajralib turadi.

Markaziy pasttekislik. Qadimgi Avstraliya platformasi sharqiy chekkasining bukilishi, Kaledon burmali tog'laridan bir qismining cho'kishi, shundan keyin, dengiz va ko'l yotqiziqlarining to'planishi markaziy pasttekisligining shakllanishi uchun zamin hozirladi. Qadimgi rel'efning pasti baland joylari dengiz va ko'l yotqiziqlari to'planishi natijasida berkilib ketdi. Markaziy pasttekislikning chekkalarida sal-pal ko'tarilgan joylardagina rel'efning pasti-balanti seziladi. Pasttekislikning *Markaziy xavza* deb ataladigan o'rta qismi Eyr ko'li atroflarida okean sathidan 12 m pastroqda. Bu – Avstraliyaning eng past joyidir. Markaziy havzaning g'arbiy yarmida G'arbiy plato cho'llar mintaqasining davomi bo'lgan cho'llar bor.

Markaziy pasttekislikning janubi-sharqiy qismi akkumulyativ tekisliklar bilan band. Avstraliyaning eng katta daryolari Murrey va Darling shu tekisliklarni kesib o'tadi. Murrey daryosining quyi oqimida, daryodan g'arb tomonda *Flinders-Lofti* gorst palahsa tizmalari rayoni ajralib turadi.

Sharqiy Avstraliya tog'lari uzoq vaqtgacha Avstraliya Kordilyera tog'lari deb atilib keldi, ammo ular rel'ef tipi jihatidan Shimoliy va Janubiy Amerika Kordilyera tog'laridan klatta farq qiladi. Sharqiy Avstraliya tog'lari qadimgi (asosan gertsin davrida vujudga kelgan) gorst palahsa tog'lari bo'lib, judaham yemirilgan, kean sathidan o'rtacha balandligi qariym 1000 m, ko'pchilik qismi yassi tepalik tog'lardir. Paleogen va neogen davridagi uzulma va yorilishlar natijasida Sharqiy Avstraliya tog'lari ayrim tizma va massivlarga bo'linib krtgan. Avstraliya sharqiy sohili bo'ylab uzilish natijasida sharqiy yon bag'rlar tikka bo'lib qolgan. Yotiqroq g'arbiy yonbag'rlar Markaziy pasttekislikka do'ng tog' oldilari shaklida (daunslar) pasayib boradi. Bazaltlarning oqib chiqishi va yorilishlar ko'p joylarda tizmalarning shakliga o'z ta'sirini ko'rkazgan. Supacha shaklidagi platolar yorilish chizig'idagi bazalt qatlamlar osilganjoyga, to'g'r keladi. Eng baland tog' massivi-Avstraliya Alp

tog'larida (Kostyushko cho'qqisi-2234 m) to'rtlamchi muzlik izlari: karlar, troglar, muzlik ko'llari saqlanib qolgan. *Ko'k tog'lar* va boshqa bazi tog'larning tepalarini tuzgan ohaktoshlarda karst hodisasi rivojlangan.

1.3 Avstraliya boshqa materiklaran ajralib turganligi sababli Yevropaliklar uni boshqa hamma materiklardan keyinroq kashf qildilar. Materikni Gallandiyaliklar kashf qilgan. XVII asrning birinchi yarmida materikning shimoliy g'arbiy va janubi-g'arbiy sohillari Gallandlarga ma'lum bo'gan. XVII asr o'rtalarida Gallandiyalik sayoh A. Tasman Avstraliyani janub va shimol tomondan aylanib chiqqan. U o'z yo'lida orolni uchratgan va uning nomiga bu orol Tasmaniya oroli deb nomlanga. A. Tasman, Avstraliya-avvallari o'ylanganidek nomalum Antarktida materigining bir qismi emas, balki mustaqil materik ekanligini isbot qildi. Biroq gallandlar kashfiyotlarini uzoq vaqt yashirib kelganlar. XVIII asr oxirida eng yirik ingliz dengizchisi Jeyms Kuk Avstraliyani ikkinchi marta kashf etdi. 1770-yilda u Yevropaliklar orasida birinchi bo'lib kommandasi bilan Avstrliya qirg'og'iga qadam bosdi.


II BOB:

2.1 Iqlimi

Avstraliya shimolda subekvatorial kengliklar biln janubda subtropik kengliklar orasida bo'lib, faqat Tasmaniya oroli deyarli butunlay o'rtacha mintaqada. Shunday geografik o'rniga yarasha materik iqlimiga tasir etuvchi asosiy faktorlardan biri quyosh radiatsining yuksakligidir. Quyosh radiatsiyasi shimoli-g'arbda har-bir sm^2 140 k/kalga yetadi.

Janubiy Afrika va Janubiy Amerikaga nisbatan Avstraliya ekvatoridan janubga tomon g'arbdan sharqqa ko'proq cho'zilgan. Qirg'oq chizig'i kam bo'linganidan materik g'arbdan sharqqa ko'proq cho'zilganligi sababli ichki rayonlarda havo temperaturasi doimo yuqori bo'ladi, shunga, asosanib, Avstraliyani janubiy yarimshardagi quruq yerlarning eng issig'i deb atasa bo'ladi.

Materik ko'pchilik qismining iqlimi kontinental. Materikning ichki oblastlariga shimoldan va janubdan bazan juda ichkari kiradigan dengiz havosi (tog'larning yo'qligi shunga imkon beradi) tez isib quriydi.




2-Rasm. Yer betida havoning o'rtacha temperaturasi. Yanvarda

Sharqiy Avstraliya to'g'lari Tinch okeanidan esuvchi nam shamollarni to'sib qoladi va okean sektorlarini quruqlik sektorlaridan ajratib turadi. Qirg'oq bo'yidagi shu tor sektorlarning iqlimiga iliq Sharqiy Avstraliya oqimi ta'sir etib turadi. Darling

tizmasi ham janubi g'arbda O'rta dengiz iqlimi tipidagi okean bo'yi tor sektorini ajratib turadi. Darling tizmasi oldida qirg'oq bo'yidagi polosa sal sovuqroq G'arbiy Avstraliya oqimi bilan bir qadar soviydi. Darling tizmasidan shimol tomondagi sohilga janubiy Hindiston maksimumining sharqiy chekkasidan keluvchi shamollar va yozgi mussonlar birozgina yog'in-sochin keltiradi, shuning uchun Avstraliyaning g'arbiy chekkasida cho'llar o'rniga chala cho'llar uchraydi.

Materik, ayniqsa uning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismlari dekabr-fevralda qattiq isiydi. Bu oylar yilning issiq mavsumi hisoblanadi. G'arbiy platoning shimolida va Markaziy Pasttekislikning deyarli butun shimoliy yarmida havoning o'rtacha temperaturasi 30°C dan oshadi. Chekka janubdan 20°C li izoterma o'tadi. Quruqlik qattiq isiganidan shu izoterma ustida past atmosfera bosimi-Avstraliya minimumi vujudga keladi. Hind okeani bilan Tinch okean ustidagi baland bosim oblastlari yilning shu faslida janubga siljiydi va o'zaro qo'shilib, materikning janubiy chekkasiga yoyiladi. Faqat sohilga ko'p yog'in beradigan nam ekvatorial havo past bosimning ichki oblastiga shimoli-g'arbgacha tomondan qo'shiladi. Arxemlend va York yarim orollarida yiliga 1000 mm dan ziyodroq yog'in tushadi. Ichki rayonlarda bu yog'irlar Shimoli-G'arbiy burun-Sidney shhri chizig'idan shimol tomonda yozgi yog'ingarchilik maksimumiga sabab bo'ladi, garchi shunday bo'lsaham, yog'irlarning foydasi umuman kam. 19-20° janubiy kenglikdan janub tomonda yog'in miqdori 300 mm dan oshmaydi, shuning uchun chala cho'llar va cho'llar



ko'proq.

3-Rasm.Yillik yog'inning o'rtacha miqdori

Past bosim oblastiga janub tomondan janubi-sharqiy va janubiy shamollar kirib keladi. Lekin bu shamollar balandroq kengliklardan (baland bosim oblastidan) kelgani uchun yog'ingarchilikka sabab bo'lmaydi. Shu tufayli Avstraliya janubida yoz juda quruq: Pertda bir yilda yog'adigan 850 mm yog'indan faqat 32 mm, yani 4 foizga yaqini yozga tog'ri keladi. Okeandan asuvchi shamollar issiq materik ustidan o'tar ekan, tez qiziydi, G'arbiy platoning janubiy cho'llarida va Markaziy pasttekislikning janubida havo issiq bo'ladi (Kulgardida eng issiq oyning o'rtacha harorati 25.3°C). qirg'oq bo'yidagi polosada havo bir muncha salqin, akbatta: Pertda eng issiq oyning o'rtacha harorati 23.3°C.

2.2 O'simliklari

Bo'r davrida janubiy materiklardan va Janubi-Sharqiy Osiyodan ajralib ketgan Avstraliyaning o'simlik va hayvonot dunyosi g'ayat o'ziga hos.

Avstraliya o'simliklarning turlari juda kam (yuksak darajadagi o'simliklar turlari atiga 1200ta gacha boradi). Avstraliya florasida endemiklar g'oyat ko'p (o'simlik turlaridan 75 % i endemik turlardir). Shunga ko'ra Avstraliya bilan Tasmaniya mustaqil Avstraliya flora oblasti qilib ajratiladi.

Antarktika florasining hozirgi vaqtda Janubiy Amerika va Yangi Zelandiyada o'sadigan o'simlik turlari (janub buk daraxtlari- bazi igna bargli daraxtlar) va Jnubiy Afrikaning Kap florasida (proteylar oilasining vakillari va hokazo) bilan umumiy bo'lgan turlari Avstraliya florasining tarkibida saqlanib qolgan. Buning sababi shuki, bo'r davrigacha, jumladan, Avstraliya Antartida materigi orqali Janubiy Amerika va Afrika bilan quruqlikda tutashib turgan.

Neogen davrida Avstraliya materigi Malaya arxipelagi va Yangi Gvineyaga ikki marta tutashgan, vaqt-bavaqt Yangi Zelandiya, Bismark arxipelagi, Solomon orollari va Okeaniyadagi boshqa orollar bilan bog'lanib turgan, shunga ko'ra, Maleziya florasining vakillari – bu floraning qadimgiroq Melaneziya elemenrlari (Okeaniyaning mayday arxipelaklaridan) va yoshroq elementlari (Yangi Gvineyadan) Avstraliya materigiga o'tgan. Fikuslar pandanuslarning turlari, ba'zi palmalar, lianalar, sham daraxti degan daraxt Maleziya florasiga kiradi. Bu flora

Avstraliyaning shimoliy va sharqiy rayonlarida tarqalgan holos. Materikning endemik florasida bo'r davrining o'rtalaridan boshlab, ikki joyda-janubi-g'arbida va janubi-sharqida taraqqiy etgan. Evkalipt (evkalipt turlari va kenja turlari 600 dan oshadi), filloid akatsiyalar (280 turi bor), shuningdek banksiyalar uzun bargli kazuarinalar va o'tsimon daraxtlar materikning endemik florasiga xarakterlidir. Bu flora tarkib topgan ikkala makon to'rtlamchi davrgacha dengiz va ko'l havzalari bilan bo'linib turgan, hozirgi vaqtda esa ikkala makon o'rtasida materik ichidagi cho'llarning ekologik to'sig'i mavjud. Cho'llarning kserofit florasida asosan shimoliy va sharqiy Avstraliyaning gigrofitlari bilan mezofitlaridan vujudga kelgan. Bu o'simliklar to'rtlamchi davrning plyuvial epoxalarida ichki hudutlarga o'tgan.

Materikning **o'simliklar qoplami** o'zi vujudga kelgan paleogeografik husuaiyatlarni ham, hozirgi zamondagi gidrotermik sharoitni ham aks ettiradi. G'allagullilar formatsiyasi keng ichki rayonlardan iborat kattaroq maydonni egallaydi. Chim bosgan g'allagullilardan spinifeks bilan triodiyaning ko'pligiga qarab materik ichidagi sharqiy cho'lni "spinifeks cho'li", g'arbiy cho'lni esa "triodiya cho'li" deb atashadi.

Avstraliyaning shimolida g'allagullilar o'rniga avval tikanli akatsiyalar chakalakzorlari - mulga-skrab, so'ngra soyabonsimon akatsiyalar, yakkam-dukkam sukkulent Gregori "baobop" daraxtlari va evkaliptlar o'sadigan savannalar paydo bo'ladi. Shimoliy sohilda yog'ingarchilik muntazam bo'lish bilan birga yozda yetarlicha mo'l, bu sohilda savannalar evkalipt siyrak o'rmonlari bilan navbatlanadi, daryo vodiylarida esa juda xilma-xil daraxtlardan tarkib topgan qalin galereya o'rmonlari davom etadi.

Materik janubida g'allagulli o'rniga keng mulga-skrab polosasi, namroq joylarda esa malli-skrab butazorlari - evkalipt butalari va hokazolar uchraydi. Avstraliyaning janubi-g'arbida qihda muntazam yog'in yog'ib turadi, bu joylarda malli-skrab sekin-asta quruq evkalipt o'rmonlariga aylanadi. Darling tizmasining shamolga o'ng yonbag'rlari shunday o'rmonlar bilan qoplangan.

Sharqiy Avstraliya tog'larining Tinch okean tomonga shamolga o'ng yonbag'rlari qalin o'rmonlar bilan qoplangan, quruq g'arbiy yonbag'rlarida siyrak o'rmonlar va ora-sira savannalar bor. 19° janubiy kenglikdan shimol tomonda,

shamolga o'ng yonbag'irlarda doimiy nam subekvatorial o'rmonlar bor. Bular shimoliy sohilning galereya shaklidagi o'rmonlariga o'xshaydi. Nam ekvatorial o'rmonlarda palma, fikus, lavr daraxtlari ko'p, 1000 m dan baland joylarda araukariyalar va baland tanali bambuklar o'sadi.

19° janubiy kenglik bilan 30° janubiy kenglik o'rtasida tropik o'rmonlar ko'proq. Bu o'rmonlarda evkaliptlar ko'pchilikni tashkil qiladi, maleziya florasining turlari esa keskin darajada kamayadi. 30° janubiy kenglikdan janub tomonda, tog'larning yonbag'irlari musson subtropik o'rmonlari bilan qoplangan. Bu o'rmonlarning pastki qavatida baland tanali evkaliptlar ko'proq, yuqorisida esa evkalipt daraxtlarining tagida daraxtsimon poporotniklar paydo bo'ladi, o'rmonlarning yuqori chegarasi (Avstraliya Alp tog'larida) doim yashil daraxtlar bilan "qor yelim" evkaliptidan tarkib topgan.


Sharqiy Avstraliya tog'larining g'arbiy yonbag'irlaridagi siyrak o'rmonlar evkaliptlardan iborat bo'lib, tagida poporotniklar yo'q, ammo yer beti g'allagullilar va ikki pallalilar bilan savrsimon kallitris qalin o'sadi.

Avstraliya bosib olinishi bilanoq katta-katta o'rmon massivlari yong'in chiqishidan va kesilib nobut bo'lib ketdi. Bu hol ko'pgina muhim rayonlarning tabiiy suv ta'minotini juda ham tomon yomonlashtirib qo'ydi. Ko'pgina yaylovlar toptalib, bosilib, yanchilib ketdi. Ularda oziq jihatdan qimmat kam g'allagullilar g'allagullilar qoldi, holos. Tuproq qatlamining eroziyasi va sovirilishi ham o'simliklarning yo'qolib ketishiga yo'l ochdi.

Avstraliyada subekvatorial, tropik va subtropik mintaqalarga hos bo'lgan hamma tuproq tiplari qonuniy tartibda ajralib turadi.

Ichki cho'l hududlarda iptidoiy toshloq va soz tuproqlar keng tarqalgan. Katta-katta maydonlar asosan mustahkamlangan qumlar bilan qoplangan. Iptidoiy tuproqlar shimol tomondan tropik chala cho'llarning halqasi bilan o'ralgan, bu cho'llarning tuprog'i qizg'ish-qong'ir, soz va qumoq tuproqlardan iborat. G'arbda iptidoiy tuproqlar Hind okeaniningnaq sohiligacha tarqalgan, shimolda va sharqda esa ular cho'lga aylangan savannalarning qizil-qo'ng'ir tuproqlariga o'tadi. Kimberli platosida va Arnhemlend yarim orolida qizil tuproqlar o'rniga baland o'tli savannalarning qizil tuproqlari paydo bo'ladi, ularning tog'larga hos tur xillari

uchraydi. Materikning shimoliy sohili bo'ylab, grunt suvlari yuzaroqdagi joylarda botqoq tuproqlar va podzollashgan lateritlar unda-bunda uchraydi, daryolarning dengiz suvi ko'tarilganda bosadigan quyilish joylarida mangra botqoqlarining tuproqlari uchraydi.



4-Rasm.Avstraliyaning flora sxemasi

1. oblastchalarning

Janubda, materik ichidagi cho'llarning subtropik gardishida Hind okeanining sohilidan Murrey va Darling daryolarining o'rta oqimigacha subtropik chala cho'llar va dashtlarning asosan bo'z tuprog'i va sur jigar rang bo'z tuprog'i tarqalgan. Iqlim tobora nam bo'la borgan sayin bunday tuproqlar O'rta dengiz sharoiti uchun zonal tuproqlar bo'gan jigarrang tuproqlarga aylanadi, lekin janubi-g'arbda Hind okeaninig sohili yaqinida jigar rang tuproqlar o'rniga relikht qizil tuproq va sariq tuproq paydo bo'ladi. Bunday tuproqlar namroq va iliqroq neogen iqlimidan saqlanib qolgan bo'lib, ularning ostida laterit pardasi ko'p uchraydi.

2.3 Hayvonot dunyosi

Avstraliya va uning yonidagi Yangi Gvineya, Solomon orollari va Tasmaniya Avstraliya zoogeografik oblastini tashkil etadi. Bu oblastda mezazoy va uchlamchi

davr faunasining vakillari-masalan, yerda yashayotgan xaltalilarning ko'pligi bizning zamonamizgacha saqlanib qolgan, yuqori darajadagi sut emizuvchilar esa yo'q desa ham bo'ladi. Xaltalilar va tuban darajadagi boshqa hayvonlar Avstraliyaga bo'r davrida (Avstraliya Yevrosiyodan ajralib ketguncha) Malaya arxipelagi orqali quruqlikdan o'tgan deb tahmin qilishadi. Yuqori darajadagi hayvonlar, jumladan yirtqichlar paydo bo'lgan vaqtgacha Avstraliya Malaya Yevroaiyaga bo'g'lanishdan maxrum bo'gan. Avstraliyada yirtqichlar bo'lmaganligi xaltalilarning beto'xtov, bemalol evalyutsiya qilishiga imkon bergan. Xaltalilar neogen davrida va to'rtlamchi davrning boshlarida eng taraqqiy topgan. Faqat Avstraliyaga hos bo'lgan ikki kurak tishli xaltalilar kenja guruhi (kengru, vombat, kuskus) huddi o'sha vaqtda paydo bo'lgan. Ikki kurak tishli xaltalilar o'z ajdodi-ko'p kurak tishli xaltalilarga nisbatan ko'proq taraqqiy etgan.

Xaltalilarning taraqqiyoti yuksak darajadagi umirtqalilar bilan konvergensiylanish yo'lidan, yani ularga o'xshash hayotiy formulalarni vujudga keltirish yo'lidan borgan. Birday ekologik sharoitda yashaydigan yuqori darajadagi sut emizuvchilar bilan bir xil hayotiy tiplarning xaltalilarda vujudga kelganiga sabab shu. Kengrularning eng katta oilasi juft tuyoqlilarga o'xshaydi, vombatkar oilasi kemiruvchilarga yaqin turadi, kuskuslar oilasi uchar olmohonlarga ohshaydi va hokazo.

Kengru, vombat, kuskusning xar-xil turlari Avstraliyaning hamma teretoriyasida uchraydi. Yirtqich xaltalilar-bo'ri, shayton (dyavol) faqat Tasmaniya orollarida yashaydi, xaltali koali ayig'i ham o'sha orolda uchraydi.

Orqa chiqaruv teshigi bitta bo'lgan tuhum qo'yuvchi sut emizuvchilar-ehidna (cho'l va chala cho'l rayonlarida) va o'rdakburun (janubi-sharqda) Avstraliyada saqlanib qolgan. Exidna yer betide yashaydi, chumolilar va termidlar bilan oziqlanadi, o'rdakburun suvda kechiradi va daryolarning aylanma joylarida uchraydi.


Avstraliyada yuqori darajadagi sut emizuvchilardan endemik ko'rshapalak va kemiruvchilar, shuningdek, yovvoyi dingo iti yashaydi. Dingo iti Avstraliya materigiga odam bilan birga borib qolgan.

Avstraliyada qushlardan endemik emu tuyaqushlari (asosan g'arbiy Avstraliyada), kazuarlar (faqat shimoliy Avstraliyada), kakadu to'tiqushlar kenja oilasi, lira dum,

jannat qushi, begona o't talab tovuqlar (o'simlik qoldiqlarining uyimiga tuhum qo'yadigan tovuqlar) va qora oqqushlar (jnnubi-g'arbiy Avstraliyada) xarakterlidir.

Avstraliyada zaxarli ilonlar, kaltakesaklar (jumladan zirxli kaltakesak) ko'p. Kvinslend daryolarida ikki turli tumsoh yashaydi. Baliqlardan ikki tomonlama nafas oluvchi qadimiy *seradodani* aytib o'tish zarur. Bu baliq ham Kvinslend daryolaridagina uchraydi. Bo'g'im oyoqlilarning turlari juda ko'p (iskap topar, pashsha, chayon va zaxarli o'rgimchaklar ko'p). Avstraliya bosib olinayotgan vaqtda unga qoramol, qo'y, echki, quyon (misilsiz darajada ko'payib ketgan), tulki, ko'pgina Yevropa qushlari keltirilgan edi, ular Avstraliya iqlimiga yahshi o'rganib qolgan.

III BOB: Avstraliyani tabiiy regionlarga ajratishda uchta struktura morfologik viloyat-G'arbiy plato, Markaziy pasttekislik va Sharqiy Avstaliya tog'lari yaqqol aks etganligiga etibor berish zarur. Ularning har birida Avstraliya muhitining paleogeografik taraqqiyoti jarayonida shakllangan landshaftlarning zonal xususiyatlari alohida-alohida yuzaga chiqadi, shunday qilib, regionlardan har birini materikning mustaqil tabiiy geografik o'lkasi deb qarasa bo'ladi.



5-Rasm.Avstraliya materigining tabiiy geografik o'lkalarga bo'linishi sxemasi

Sharqiy Avstraliya tog'larida tog' o'rmon landshaftlari ko'proq taraqqiy etgan. Bu landshaftlarning organik komponentlari murakkab tektonik dislokatsiyalar bilan bir vaqtda vujudga kelgan. O'rmon zonalaridan o'simliklar tarkibida endemiklarning g'oyat ko'ligi materikning boshqa rayonlaridan tog'lar uzoq vaqt yakkalanib qolganligini yaqqol ko'rsatadi.

Mezozoy erasidan to to'rtlamchi davr boshlarigacha Markaziy pasttekislikni egalla turgan dengiz va ko'l havzalari tog'larni materikning qolgan rayonlaridan ajratib turgan. Avstraliya platformasining tebranma harakatlari sababli quruqlik maydoni sekin-asta kengaygan bir vaqtda akkumulyativ dengiz va ko'l tekisliklarida tuproq va o'simlik qatlamining zonal tiplari va daryolar vujudga kelgan.

G'arbiy plato aksincha, mezozoy ersidan boshlab, asosan ko'tarilganicha qolgan, bu platoning bir necha sikldagi denudatsiyada tekislanib qolgan reliefi ayniqsa bo'sligi va eroziyada sal-pal o'yilganligi bilan farq qiladi.

G'arbiy plato landshaftlari quruqlik sharoitida uzoq evalyutsiyani boshdan kechirgan, faqat qirg'oq bo'yidagi pasttekisliklar bilan Nallobor tekisligi neogen davrining ohirida va to'rtlamchi davrning boshlarida dengiz suvlaridan bo'shagan. G'arbiy platoning okeandan eng uzoq bo'lgan ichki rayonlarida na, iqlim zamonlari qisqa vaqt davom etgan va bu rayonlarning iqlimi asosan quruqligicha qolgan, deb taxmin qilsa bo'ladi. Shu sababga ko'ra, Katta Qumli cho'l, Gipson cho'li va Katta Viktoriya cho'lining hozirgi zamondagi landshaftlari qadimdan bir qadar meros qolgan, lekin organi dunyo evolyutsiyasi ularning harakterini ancha o'zgatgan deyish mumkin.

3.1 Sharqiy Avstraliya tog'lari

Balandligi o'rtacha, burmali palahsali tog'lar bo'lgan Sharqiy Avstraliya tog'lari asosan gertsin bosqichida vujudga kelgan, bu tog'lar materikning sharqiy sohili bo'ylab uzala tushgan. Ularning shamolga o'ng yon bag'rlari doimiy yashil qalin o'rmonlar bilan, shamolga teskari yon bag'rlari aralash (bargini to'kuvchi va doimiy yashil daraxtlardan tashkil topgan) siyrak o'rmonlar bilan qoplangan. Sharqiy Avstraliya tog'lari suvayirg'ich xizmatini o'taydi va ayrim massivlarga bo'linadi.

Regionlarning landshaftlari xarakteriga qarab ularni ikkita shimoliy (28° janubiy kenglikka qadar) va janubiy oblastlarga ajratish mumkin: 1) Kvinslend tog'lari, 2) Yangi Janubiy Uels tog'lari.

Ularning janubiy davomidan ancha keng va oastroq bo'lagan **Kvinslend tog'lari** uzinasiga ketgan uchta struktura-morfologik zonadan, yani qirg'oq bo'yidagi Kristal platolar va massivlar, o'rtalikdagi qozonsoylar va Katta Suvayirg'ich tizma yoki Katta Suvayirg'ichdan iborat.

Qirg'oq bo'yidagi kristal platolar va massivlar o'rtacha balandligi 1000 m chamasida bo'lib, asosan granit va kvarsitlardan tarkib topgan. Ular qirg'oq bo'yidagi kambar pasttekislik shaklida tikka ko'tariladi va daryolarning kanyonlari bilan bo'linadi. Suvayirg'ich *Aterton* platosining sharqiy chekkasida qad ko'targan *Bellenden-Ker* tizmasi hammasidan balantroq (Bartl Frir tog'i-1611 m). Platoda

kichkina vulkanlar va krater ko'llari saqlanib qolgan. Plotsendan keyingi davrda vulkanlar o'tilib turgan va bu platolar Avstraliyaning eng yosh platolaridir deb tahmin qilishadi.

Tog'larning shamolga o'ng yon bag'irlari va qirg'oq bo'yidagi pasttekislik iqlimi issiq bo'lib, yomg'irgarchilik mavsumi dekabrdan aprelgacha cho'ziladi. Bu davrda osmon qalin bulutlar bilan qoplanadi, havoning nisbiy namligi 85% ga yetadi. Eng issiq oylarning (dekabr-yanvar) o'rtacha temperaturasi har doim yoqori (24-26°C) bo'lib, oblastning shimoliy chegarasigacha atiga 1°C pasayadi.

Quruq mavsumda 11° janubiy kenglik bilan 20° janubiy kenglik oralig'iga, shu faslda ko'proq esadigan janubiy-sharqiy shamollarga nisbatan qulay o'rindagi tog'li sohildagina yomg'ir ko'p yog'adi. Yillik yomg'ir miqdori bu yerda 4000 mm ga yetadi. Bu joy Avstraliyaning eng sernam rayonidir.

19° janubiy kenglikdan shimol tomonda tog'larning yon bag'irlari nam suekvato'rial o'rmonlar bilan qoplangan. Ulardagi flora tarkibi Malaya o'rmonlariga o'xshaydi. Neogen davrigacha Avstraliya Malayyaga territorial jihatdan muvaqqat bog'lanib turgan. Bu nam tropik o'rmonlar tur tarkibi jihatdan juda boy. Baland tanali daraxtlarni taxtaga o'xshash tayanch ildizlar suyab turadi, daraxtlarning tanalarini lianalar chirmab olgan.

Bu o'rmonlardagi eng tipik daraxtlar palmalar, rang, terriertiya.bu daraxt barglarining orqa tomoni fikus bananlarning kumush rang g'ubori bilan qoplangan. Janubi Sharqi Osiyo bilan Hindistonga xarakterli rotang liana palmasi (*galamus muelleri*), shuningdek daraxtlarning tanalariga chirmashadigan yovvoyi garimdori (pirer pestoni) ko'p uchraydi. Orxideyalar va poporotniklar ko'p. daryo vodiylarida sago daraxtlari, botqoqlangan vodiylarda pandanuslar, daryolarning okean suvi bosadigan quyilish joylarida mangra daraxtlari tarqalgan.

Nam subekvatoriyal o'rmonlar tog'larning yon bag'irlarida 1000 m gacha uchraydi. Bulardan yuqorida tog' o'rmonlari bor, ulrning tarkibi yaxshi o'rganilgan emas. Eng issiq talab turlar yo'qolishi bilan bir vaqtda igna bargli daraxtlar paydo bo'lishi ma'lum.

Nam subekvatoriyal o'rmonlar tuprog'i tog' o'rmon qo'ng'ir tuproqlaridir, ular cho'kindi jinslarning va asosan kristal jinslarning nuragan pardalarida yaxshi

namlanib va yuvilib ketgan yerda hosil bo'lgan. Qirg'oq bo'yidagi pasttekislikda laterit tuproqlar palasasi davom etadi.

19° janubiy kenglikdan janub tomonda iqlim sharoiti nam subekvatoriyal o'rmonlarning o'sishiga imkon bermaydi. Bining asosiy sababi shuki, qish quruq keladi va temperature pasayadi. Shu sabapli subekvatoriyal o'rmonlar o'rniga nam tropik o'rmonlar vujudga keladi, ularning tur tarkibi boy emas.

O'rtalikdagi qozonsoylar Sharqiy Avstraliya tog'larining davom etishiga qarab cho'zilgan. Ular tektonik jarayonlar natijasida paydo bo'lgan, ammo keyinchalik oson yuvilib ketadigan paleozoy va mezazoy jinslarida daryolarning regressiv eroziyasi ro'y berishi natijasida kengygan va chuqurlashgan. Qozonsoylar pastak suvayirg'ichlar bilan bo'lingan, rel'efi past-baland. Qozonsoydagi daryolar keng vodiylardan o'tadi. Shimol tomondan birinchi qozonsoyni *byortkin* va *stator* daryolari kesib o'tadi, Kvinslendning eng katta daryosi *Fitsroy* suvlari ikkichi qozonsoyga to'planadi; uchunchi qozonsoyni *Byornet* daryosi sistemasi, to'rtinchi qozonsoyni Brisben daryosi o'ygan. Qozonsoylar shamoldan to'silgan, ularda yiliga 750- 1000 mm gacha yog'in tushadi. Shu sabapli ular siyrak evkalipt o'rmonlari bilan qoplangan.

Katta suvqirg'ich tizim rel'efi yaxshi ko'rinmaydi va shuning uchun uni Katta suvayirg'ich deb qo'ya qolish maqul. Katta Suvayirg'ich 500-700 m balandlikdagi yotiq to'siqdan iborat bo'lib, asosan paleozoy jinslaridan tarkib topgan, bu jinslar shimolda basalt lavalar bilan qoplangan.

Suvayirgich tepasi – yassi tepali miotsen penepleni bo'lib, ayrim joylar botqoqlangan, pastliklarida sayoz va ko'pincha sho'r ko'llar bor. Shunga qaramay Suvayirg'ich suvning taqsimlanishida juda katta ro'l o'ynaydi. Marjon dengiziga, Karpentariya qo'ltig'iga, ichki suv havzasi -Eyr ko'liga va Darling sistemasiga oqib ketuvchi daryolar suvayirg'ichdan boshlanadi.

Suvayirg'ichning qirg'oq bo'yidagi baland tog'lar g'arb tomonga surilib qolganligi Sharqiy Avstraliya tog'larining neogen va to'rtlamchi davrdagi tarixi natijasida bo'ldi. Sohil bo'ylab o'tgan meridional yoriqlardan (razlomlar) keyin va umumiy ko'tarilishlardan so'ng suvayirg'ich qirg'oqdagi granit massivlar bo'ylab o'tgan. So'ngra, to'rtlamchi davr boshlarida, Sharqiy Avstraliya tog'lari yana

ko'tarilgan, ayni vaqtda Katta Suvayirg'ich gumbaz shakliga kirgan. Tog'larning ko'tarilishi sababli avvalgi suvayirg'ichning shamolga o'ng yon bag'irlaridan daryolarning chuqurlatish eroziyasi keskin darajada kuchaygan. Daryolar ostonali daralarni kesib o'tgan va uzunasiga ketgan qozonsoylarda avvalo g'arbg'a qarab oqqan qadimgi daryolarni qo'shib olgan. Shunday qilib Katta Suvayirg'ich tizma suvayirg'ich ro'lini o'ynagan, Katta Suvayirg'ich tizmaning shimoliy va janubiy qismlari tepasidagi unchalik yuvilib ketmaydigan bazalt qatlamlar shunga yordam bergan.

Basalt qatlamlar qora rangli tuproqlarning vujudga kelishi uchun ona jins bo'lib xizmat qilgan. Savannalar bor joylarda qora rangli tuproqlar tarqalgan. Boshqa rayonlarda siyrak evkalip o'rmonlari ko'proq, ulrning tupqg'i qizil, janubda sarvsimon, kallitrisdan takib topgan o'rmonlar anchagina maydonni egallaydi.

Yangi Janubiy Uels tog'lari kristal va cho'kindi paleozoy jinslaridan tarkib topgan yig'iq suvayirg'ich massivlarning kammbar mintaqasi hisoblanadi. Rel'efda uzilma tektonika, uchlamchi lava qatlamlari va vulkanli konuslar, shuningdek ayrim tizmalarni hosil qiluvchi jinslarning xarakteri katta ahamiyatga ega.

Tog'lar Brisbendan janub tomonda b u r m a l i - p a l a h s a l i Y a n g i A n g l i y a t o g' l a r i bilan boshlanadi. Ularning o'rtacha balandligi 1200-1300 m ga yetadi (Bend-Lomond tog'i-1524m), tepalari ozroq p'st-baland. Suvayirg'ich tizmaning sharqiy chekkasiga nisbatan pastroq bo'lgan g'arbiy chekkasidan o'tadi. Daryolar chuqur daralarda uzilma chig'i bo'yicha ko'tarilgan sharqiy chekkani yorib o'tadi. Bu daryolardan eng kattasi – Klarens daryosi ayni paytda Yangi Janubiy Uels tog'laridagi eng yirik daryo hisoblanadi.

Yangi Angliya tog'lari shimol va janub tomondan Gastings va Liverpul gorst tizmalari bilan o'ralgan. Bu tizmalar bazaltlar bilan qoplangan. Daryolar gorst tizmalarini tik devorli zinasimon kanyonlar bilan bo'kib tashlaydi. Liverpul janubda tektonik botiqqa tik tushadi. Bu botiq *Xanter* daryosining erosiya faoliyati natijasida kengayib qolgan.

Xantr vodiysining orqasida K o' k t o g' l a r boshlanadi. Bu tog'lar ohaktosh va qumtoshlardan tarkib topgan, kanyonlar bilan bo'lingan tikka platolarning murakkab mozaykasini hosil qiladi. Kanyonlarning chuqurligi 300-800m ga yetadi.

Daryolarning suv yig'uvchi havzalarida kanyonlar kengayib, tikka va supacha bo'lib tushuvchi amfiteatrlarni hosil qiladi. Ko'k tog'lar g'arbiy qismining oaktoshlarida karst hodisasi keng rivojlangan.

Ko'k tog'lar keng tektonik pasaymaga tik tushadi, shu pasaymaning orqasiga kristall jinslardan tuzilgan *A v s t r a l I y a A l p t o g' l a r i* penepleni (monaro platosi) qad ko'tarib turadi. Bu - Sharqiy Avstraliya tog'larining ko'proq ko'tarilgan massividir. Bu massiv granitlar va kvartsli porfirlardan tarkib topgan. Massiv uzinasiga ketgan vodiylar bilan palahsalarga bo'lingan. Bu palaxsalar g'arbga tomon zina-zina bo'lib ko'tariladi. Peneplen kabi tekis yerda qoldiq tepalar bor. Bular Avstraliyadagi eng baland tepalar hisoblanadi (*Kosyushko tog'i-2234 m*). Ularda to'rtlamchi davr muzliklarining belgilari-trog vodiylari, karlar, muzlik ko'llari va oxirgi morena gryadallari bor. Monaro platosidan *Murrey, Marrambidji* va *Snoui-River* daryolari boshlanadi, bu daryolarda gidroenergiya zapaslari katta.

Yangi tektonik botiq Monaro platosini *Viktoriya Alp tog'larid* a n ajratadi. Alp degan nom shartli nomdir, chunki bu tog'larning rel'efida Alp formalari yo'q. ulni *Viktiriya tog'lar*i deb atash to'g'riroq. *Viktoriya Alp tog'lar*i bo'linib ketgan gorst platolari va massivlaridan iborat, uchlamchi davr razlamlari borligidan kenglik bo'yicha cho'zilgan, bu vaqtda bazaltlar oqib chiqqan. Relefning vulkanli formalari ayniqsa Melbrundan g'arb yomonda taraqqiy etgan. Bu yerda lava oqimlari granit jinslardan tarkib tipgan *B a l l a r a t* patosini deyarli batamom o'rab turadi.

*Viktoriya Alp tog'lar*i janub tomonda katta Avstraliya vodiysining grabeniga tushadi, bu vodiyni qisman dengiz suvi bosgan. Tog'larning erosiya bo'linishi shamolga o'ng va sernam janubiy yon bag'rida aktivroq bo'ladi. Qurg'oqchil shimoliy yonbag'ir kam duv daryolarning vodiylari bilan kaesilgan bo'lib, qurim toshlar bilan qiplangan.

Yagi Janubiy Uels tog'lar iqlimi subtropik musson iqlimidir. Ularning shimoliy qismiga (28° - 35° janubiy kenglikka) yozgi yog'ingarchilik mavsumi xarakterlidir. Janubiy Tich okean maksimumining g'arbiy chekkasidan esadigan sharqiy va shimoli sharqiy shamollar yog'ongarchilik keltiradi. Shu bilan birga qish tamomila quruq

bo'lmaydi, chunki frontning siklon yog'inlari Brisbengacha va undan ham shimolga kirib boradi. Tog'liklarning janubiy qismida qishqi tog'in ko'proq bo'ladi.

Monaro platosida qish sovuq bo'lib, qor yog'adi. Shamolga teskari yonbag'irlardagi daralarga kuchli sharqiy shamollar keltirgan qor qatlami uzoq vaqt (Kosyushko tepasida yil bo'yi) erimay yotadi.

Tog'larning yonbag'irlaridagi daraxtlar ko'p kesilganiga qaramay, ayniqsa sharqiy tomonida talaygina o'rmon massivlari saqlanib qolgan. Nam subtropik o'rmonlar Sidneydan janub tomonda qalinroq. O'rmonlar asosan bodom evkalipt daraxtidan tarkib topgan. Bu daraxt tanasining bo'yi 150 m ga, diametri 10 m ga boradi. Bu yerga shimoldan o'tgan liviston palmasi va endigina ko'rinib qoladiganbuk daraxtlari o'rmonlarga o'ziga host us beradi.

Bu o'rmonlarning pastki qavati daraxtsimon poporotniklar bilan tola, bu poporotniklarning nozik pastsimon vayalari (barglari) bor. Daraxtlar ostidagi chakalakzorda mirtalar, dukkaklilar oilasining butalari, shuningdek kazuarinalar uchraydi. Daraxtlarning tanalari epifitlar va lianalar bilan qoplangan.

O'rmonlarning tuprog'i yupqa, toshloq, tog' o'rmon qo'ng'ir tuproqlaridir. O'rmon massivlarining yo'q qilinishi natijasida ko'p joylarda halokatli surilmalar paydo bo'lgan va tuproq qqatamlari yuvilib ketgan. O'rmonning yuqori chegarasidan balandda (1600-2000 m) Alp mintaqasiga kiradigan Monaro platosi qad ko'tarib turadi xolos.

Torf-o'tloqi tuproqli yerlardagi Alp yaylovlarining o'tlari orasida murakkab gullilar va "qor o't" ko'proq. Butasimon veresk juda ko'p.

3.2 G'arbiy Avstraliya o'lkasi

G'arbiy Avstrliya o'ziga xos, asosan chalacho'l va cho'l landshaftlari bilan farq qiladi, chunki rel'fi ko'tarilgan, bo'lingan, qalin laterit pardalar keng tarqalgan. G'arbiy Avstrliyada ichki rayonlardan shimolga, janubi-g'arbga va g'arbga namlik miqdori oshib boradi. Shunga ko'ra materikning g'arbiy sohili nuqul Avstrliyaga hos bo'lgan xususiyatni kasb etadi. Afrika va Janubiy Amerikaning g'arbiy qirg'oqlaridagi yuzlarcha kilometr masofada Atkantika okeaniga va Tinch okeaniga

qarab cho'llar davom etsa, Avstrliyaning g'arbiy qirg'oqlarida yarim cho'l landshaftlari uzala tushib yotibdi.

G'arbiy Avstrliyaning asosiy morfologik birligi G' a r b i y p l a t o d i r. platoning shimoliy qismi Kimberli massivi va Arnxemlend yarim oroli bilan band. Dengiz sathidan o'rta hisobda 600-700 m balanddagi Kimberli massivi quyi mezazoy qumtoshlari, Kristal ohaktoshlar, kvarsitlar va kembriydan oldingi granitlarda tarkib topgan. Ord daryosining tuqori tomonlarida bu qattiq jinslar qadimgi basalt qatlamlar bilan qoplangan(Antrim platosi). Massiv eroziya natijasida plato va tizmalarga bo'linib ketgan. Daryolar tizmalarni va platolarni chuqur antesedent daralar orqali kesib o'tadi, so'ngra kengroq bo'ylama vodiylarga birdan buriladi. Daryo shahobchalarining shunday joylashganiga asoslanib, ularning ma'lum joylari to'silgan, bir xil daryolar ikkinchi bir xil daryolar tomonidan qo'shib olingan, natijada daryolar hozirgi o'rnini olgan deb tahmin qilish mumkin. Materik to'rtlamchi davrdasohil bo'ylab cho'kkan, natijada daryolarning quyi oqimlari qirg'oqqa chuqur kirib ingression qirg'oq vujudga kelgan.

Kimberli platosining tepalaridan boshlanuvch eng yirik daryo – *Fitsroy* daryosinig uzunligi 800 km chamasida. Bu daryo King-Leopold tizmasini yorib chiqishda toraya-toraya tik kanyon hosil qiladi. Daryo o'sha tizmaning janubiy chekkasiga chiqqach, birdaniga shimoli g'arbga burilib, keng botiqdan o'tadi. Bu botiq qadimgi Kristal poydevorning bukilgan va paleozoy qatlamlari bilan to'lgan qismidir. Qisqa vaqt davom etadigan yozgi yog'ingarchilik mavsumida *Fitsroy* to'lib toshadi, qurg'oqchilik mavsumida esa qurib qolib, qator ko'llarga bo'linadi. Vodiyning yotiq yonbag'irlari pastbo'y akatsiyalarning qalin chakalakzorlari va qattiq bargli g'allagullillar bilan qoplangan, ularning orasida kukunsimon va quruq qizg'ish tuproq ko'rinib qoladi. Daryo bo'yida, shuningdek King – Leopold tizmasining zinasimon tik tushgan yonbag'irlari yaqinida siyrak evkalipt o'rmonlari unda-bunda uchrab qoladi.

Kimbrli platosi qumtoshlardan tusilgan, bu platoda kam unumdor tog' qizil tuproqlar uchraydi. Platonong shunday tuproqli savannalarida faqat quruqda o'sadigan g'allagullilar , chala butalar, butalar va majmag'il evkalipt daraxtlari uchraydi. Basalt qatlamlari bilan qoplangan Antri platosining landshaftlarini ancha

jozibador: bu platodagi qora tusli unumdor tuproqlarda yam-yashil o'tlar qalin o'sib yotadi, ularning orasida baland va yo'g'on evkalipt daraxtlari unda-bunda qad ko'tarib turadi.

Platoni kesib o'tgan vodiylar tik yuqori yon bag'irlari bilangina emas, balki qalin ko'kalamzor polasalari bilan ko'zga tashlanib turadi, chunki terassalardagi savanna o'rmonlari va daryo o'zanlari bo'yidagi galereyali doimiy nam o'rmonlar okean sohilidan o'sha vodiylar orqali ichkariga kiradi. Kimberli platosining namroq chekka shimolida savanna o'rmonlari suv ayirg'ichlarga chiqadi, tog'larning yon bag'irlari va qirg'oq bo'yidagi pasttekislik o'tib bo'lmaydigan qalin o'rmonlar bilan band. Daryolarning quyiladigan joylari yaqinidagi uchastkalar botqoqlangan, bu joylarda mangra chakalakzorlari uchraydi.

Arnhemlend yarim orolining kattaroq qismi quyi paleozoy va bo'r (shimoli g'arbda) qumtoshlaridan tarkib topgan platodir. Uning o'rtacha balandligi hech qayerda 250 m dan oshmaydi. Faqat g'arbda, granitlar va kristall slanetslar ochilib qolgan yassi tepalik do'nglar platodan yana 150 m yuqori ko'tariladi plato qoldiq massivlarga bo'linadi. Shimol tomondan plato qarshisida dengizga tikka tushadigan kambar tekislik bor. Qirg'oq chizig'I juda o'yilgan, chunki materikning shu joyi cho'kkanligi sababli daryo vodiylarining quyi bo'laklarini suv bosgan. Ammo hozirgi vaqtda qirg'oq shizig'i cho'ish o'rniga ko'tarilmoqda. Qirg'oqning ko'tarilishhi natijasida ichki rayonlarda, yani daryolar sharshara va ostonali bo'lga joylarda chuqurlama eroziya ham avj olib ketgan.

Plato janub tomondan keng Deyli va Roper daryo vodiylar bilan chegaralangan. Deyli va Roper Arnhemlend yarim orolining asosiy daryolaridir. Shunga qaramay, quruq mavsumda bu daryolar juda sayozlanib qoladi, quyi oqimlarda yil bo'yi kema yua oladi.

Arnhemlend yarim oroli Kimbrli massivga nisbatan shimolroqda bo'lgani uchun iqlimi issiqroq va namliroq. Shu bilan birga platodagi o'imliklar ko'proq kserofitlardir, holbuki iqlim sharoitiga ko'ra, laterit pardalar ko'p tarqalganiga ko'ra, boshqacha bo'lishi kerak edi. Platoda tipik evkalipt savannalari ko'proq, ammo daryolarning vodiylarida, shuningdek, Kimberli platosida shimol tomondan savanna

o'rmonlari va galereyli nam o'rmonlar ham bor. Bu o'rmonlarning massivlari qirg'oq bo'yidagi pasttekislikning laterit tuproqlarida ham uchraydi.

Kimberli massivi va Arnxemlend yarim orolidan janubga tomon G'arbiy Avstraliyaning keng cho'l va chalacho'llar oblasti ketadi. Bu oblast G'arbiy platoning ko'p qismini egallaydi. Bu yerda katta masofada qadimgi kristall poydevor ochilib qoladi, shu bilan birga sineklizalarda paleozoy va mezazoy cho'kindi svitalari saqlanib qolgan. Eng katta sieklizalar shimoli g'arbda va g'arbda.

G'arbiy plato penepelni bo'r davrining oxiridan to oligo-miotsengacha amalda bo'lgan eroziya siklida vujudga kelgan. Peneplen tepasidagi qoldiq tog'lar va tizmalar penepelen yuzasining bo'r davridan oldin anch abo'lganini ko'rsatadi.

Uchlamchi davr penepelni faqat to'rtlamchi davrda ko'tarilib, hozirgi balandligiga (300-500 m ga) yetgan, yana jonlangan eroziya peneplenning ko'proq ko'tarilgan chekka uchastkalarinigina bo'lib tshlagan. Natijada plato tashqi yon bag'irlari rel'efining yosh formalari bilan ichki tekisliklarning eskirgan rel'efi o'rtsidagi tafovut ko'zga yaqqol tashlanadi.

G'arbiy platoning markaziy qismida cho'l landshaftlari, chekkalarida chala cho'l landshaftlari hukmron. G'arbiy plato chala cho'lining 19-20° janubiy kenglikdagi shimoliy chekkasida ekvator yoni mussonlari savannalarni vujudga keltiradi. Kimberli massividan janubi - g'arbga qarab esuvchi yozgi musson G'arbiy Avstraliyaning “ 80 milyali sohili”ga 20° janubiy kenglikka qadar nam beradi va quyi kengliklardagi iliq suvni qirg'oq bo'ylab haydaydi. Sovuq G'arbiy Avstraliya oqimi yilning shu mavsumida susayib qoladi. Yiliiga 500 mm ga qadar yog'in tushadi. Avstraliya g'arbiy sohilining shimoliy qismiga (musson) qismiga qarama-qarshi o'laroq janubiy qismiga (20° janubiy kenglikkacha) janubiy qutbiy frontning siklonlari kiradigan qish faslida ko'proq yog'in yog'ingarchilik bo'ladi. Yillik yog'in miqdori 250 mm dan oshmaydi. Namlik asosan shudring va tumandan iborat bo'ladi.

G'arbiy plato g'arbiy chekkasining rel'efida deyarli kenglik bo'ylab cho'zilgan yassi tepalik qoldiq massivlar yaqqol ajralib tuibdi. Bu massivlarning shimoliy qatori Xamersli tizmasi degan nom bilan ataladi. Tizmaning shimoliy chekkasi biroz baland (Brus tog'i 1226 m) bo'lib, uzilma chizig'i bo'ylab Forteskyu daryo vodiysiga tik tushadi. Boshqa daryolarning vodiylari massivlarni keng kesib o'tadi va okeanga

qaragan yon bag'irlarigagina suqilib kiradi. Chuqurlatish eroziyasi g'oyat kuchsiz. Daryolar onda-sonda bo'ladigan jala suvlaridangina to'ynadi va ahyon – ahyonda oqadi, lekin o'zanitagida yil bo'yi suv bo'ladi. Daryo o'zanlarida evkalipt daraxtlari va butalar o'sadi, ular grunt suvidan foydalanadi va park landshafti manzarasini hosil qiladi. Plato tepalari mulga-skrab bilan qoplangan ko'rimsiz birdek tekislilardan iborat. Qirg'oq bo'yidagi cho'kindi jinslar hoshiyasiga *Shimoliy G'arbiy artezian havza* suvlari to'planadi. Bu havzaning suvlari qisman sug'orishga ketadi.

G'arbiy platoning sharqiy chekkasida Markaziy orol tog'lar rayonini hosil qiluvchi bir qancha parallel tog' zanjirlari kenglik bo'ylab davom etadi. Ularning eng kattalari *Makdonnel* va *Masgreyv* tog'laridir. Makdonnel tog'lari 400 km masofaga cho'ziladi. Ular dengiz sathidan o'rta hisobda 1200-1400 m baland bo'lib, uch zanjirdan iborat, ikkitasi-shimoliy zanjirlar kembriydan oldingi gneyslardan va slyudasimon slanetslardan tarkib topgan, bularning orasida granit intruziyalar bor, janubiy tog' zanjirini quyi paleozoy kvartsit qumtoshlari yorib kirgan. Tog' zanjirlari qadimgi zamonda Eyr ko'liga qarab oqqan daryo vodiylari bilan bo'lingan. Vodiylarda yahshi silliqlangan shag'al toshlar uchraydi. Bu esa yaqin geologik o'tmishda iqlim namroq bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi daryolar suvi (ozgina va epizotik ravishda) shimolga va asosan janubga o'q tizmadan yo'l oladi. Bu tizmadagi *Zil* tog'ning dengiz sathidan balandligi 1510 m. Finke va boshqa daryolar tog'lrni o'tib bo'lmaydigan kambar (eni bir necha metr) ko'ndalang kanyonlar orqali kesib o'tadi. Trand- Avstraliya telegraf yo'li uchun foydalanilgan birdan bir ochiq dara Todd daryosining yuqori tomonlaridagi *Alis-Spring* yaqinida.

Markaziy orol tog'lar iqlimi keskin continental, cho'l iqlimidir, bu ayniqsa mavsumga qarab juda o'zgaradigan temperatura rejimida seziladi. Shu bilan birga tog'larda tekisliklardagiga nisbatan birmuncha ortiqro yog'in tushadi. Shu sabapli tog'larning yonbag'irlari mulga iskrab chakalakzorlari va spinifeks tuplari bilan qoplangan. Oftob tushmaydigan ko'ndalang vodiylarda, krikurning toshloq o'zanlari botiqlarida bazan kichik ko'llar yil bo'yi turadi. Shu ko'llarning arofida vohalar paydo bolishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Vohalardagi o'simliklar g'oyat o'ziga xos turlari bilan farq qiladi. Bu yerda materik cho'llari markazida evkaliptlarning mezofit va gigrofit turlari bilan bir qatorda liviston palmalari, neogen

davridayoq ichki Avstraliyaning nam va issiq iqlimida mavjud bo'lgan relikt floralarning namunalari uchraydi.

Makdonnel tog'laridan janub tomonda mayday qirra toshli-shag'alli botiq bor. Bu botiqdagi *Amadeus* ko'likeng sho'rxokdan iborat (maydoni 800 km kv ga yaqin). Botiqning oftobda kuyib qovjiragan yuzasi faqat yakkam-dukkam spinifeks chimlari va pastak tikanli butalar bilan qoplangan.

Amadeus tekisligining orqasida G'arbiy platoning eng baland Masgreyv tog'lari qad ko'tarib turadi (Vudrof tog'ining dengiz satxidan balandligi 1515 m). masgreyv tog'i kriklar bilan murakkab ravishda bo'lingan granit zanjirdan iborat bo'lib, shimoliy yonbag'ri tikka. Masgreyv tog'larining yonbag'irlari mulga-skrab chakalakzorlari bilan qoplangan. Masgreyv tog'laridan boshlanadigan kriklar juda kamdan kam bo'ladigan sharros yomg'irlardan keyin faqat bir necha soat oqadi. Shunga qaramay, tog'lardagi tabiiy bo'shliqlar *gnammalarda* bir qadar suv bor. Ko'pincha butulkaga o'xshaydigan bu bo'shliqlar tog'larning yonbag'irlarida ham, tizmalarning etagida ham uchraydi. Anashu bo'shliqlardagi suv zaxirasi bir necha ming litrgacha borishi mumkin. Gnammalar tektonik yoriqlarning nurab kengayishi natijasida vujudga kelgan deb taxmin qilishadi.

Markaziy orol tog'lar bilan Xamersli tizmasining qoldiq massivlari o'rtasidagi polosada G'arbiy plato tekisliklari ko'proq ko'tarilgan. Dengiz satxidan qariyb 500 m balandlikda bo'lgan bu tekisliklar *Gipson* cho'li bilan band. Bu cho'l sirtini bir vaqtlar turgan temirli zirh uzoq fizik nurash ta'sirida anchagina yemirilgan. Yemirilish natijasida hosil bo'lgan qum shamolda pastroq uchastkalardan shimolga va janubga ko'chib qavatlangan. Yer yuzasida o'tkir burchakli tosh parchalari saqlanib qolgan, bu parchalardan Avstraliyadagi *gibber* degan tipik shag'alli cho'l vujudga keladi. Shimoli-g'arbda cho'lining yassi tekisliklari orasida tog'larning pastak qoldiq zanchirlari ko'tarilib turadi, bular kristall jinslardan va qumtoshlardan tarkib topgan. Cho'lining g'arbiy qismida shorxok ko'llar ko'p (Karnegi ko'li va hokazo).

Gipson cho'lining shimoliy qismi qumli. Shimoga borgan sayin qator-qator qum tepqlar tobora ko'proq uchraydi va tropikdan shimol tomonda *Katta Qum* cho'li boshlanadi. Bu cho'l Kanning sineklizasi-botiqning relefda sal-pal bilinadigan

janubiy chekkasida. Kanning sineklizasi quyi va o'rta perm davrida hosil bo'lgan. *Cho'l artezian havzasi* qadimgi poydevorning bukilgan joyiga to'g'ri keladi.

Katta Qum cho'li G'arbdan sharqqa va shimoli-sharqdan janubi g'arbga, yani ko'p esadigan shamollar yo'nalishida cho'zilgan qator-qator qum tepalari bilan to'la. Qum tepalarining balandligi 10-12 m ga boradi, ularning orasida gilli-sho'rxok pastliklar bor. Qum tepalar spinifeks, tikanli butalar, siyrak kserofit evkaliptlar bilan mustahkamlangan. Cho'l yozgi yomg'irlardan suv oladigan 80 milyali sohilga geyarli yaqin kelib qoladi. Shunga ko'ra cho'lda savanna o'simliklari yashay oladi. Savannalar bilan cho'llarning orasida mulga-skrab va g'llagulli triodiya o'tzorlarining kambar polosasi bor.

G'rbiy platoning shimoli-sharqi sal-palbo'lingban mayday qirra toshli-shag'alli chala cho'l va cho'l tekisliklar bilan band. Bu tekisliklar 20° janubiy kenglikdan shimol tomonga deyarli o'tib bo'lmaydigan brigelou-skrab chakalakzorlari bilan qoplangan. Botiqlar sho'rxok.

Markaziy orol tog'lardan shomol tomonda Katta Viktoriya cho'li bor. Bu cho'llar miotsen davrida vujudga kelgan. Uekla sineklizasining shimoliy chekkasida. Katta Qum cho'lining tepalariday to'g'ri tizilgan emas. 25° janubiy kenglikdan shimol tomondagina qum tepalar sharq-janubi sharq yo'nalishida davom etgan. Qum tepalar unchalik uzun emas va biri ikkinchisidan anchagina olisda.

G'arbiy platoning janubi-g'arbiy qismi Sh o' r k o' l l a r tekisligi bilan band. Relefda yahshi seziladigan gil sho'rxok botiqlar tekislik relefining xarakterli hususiyatlaridir. Botiqlar cho'zinchoq. Ular janubi-g'arbda nishab bo'lib, qator-qator joylashadi va sharros yomg'irlardan keyingina suvga to'ladi. Bu botiqlar plyuvial epohalarda mavjud bo'lgan ko'llarning o'rni (yoki daryo o'zanlarining qoldiqlari) deb taxmin qilinadi. Hammasi bo'lib 400 ga yaqn ko'l bor, ularning yarmichasidan har birining maydoni (Kauan ko'li va hokazo) 1000 km kv dan oshadi. Sho'r ko'llar tekisligining iqlimi qurg'oqchil, yarim cho'l iqlimidir. Yomg'ir kuzda va qishda yog'adi, yillik yog'in miqdori faqat chekka janubi-g'arbida 500 mm ga yetadi. Yoz quruq va issiq keladi, qishda bir necha oy sovuq bo'lishi mumkin.

Tekislikda ko'pgina yassi tepali qoldiq tog'lar qad ko'tarib turadi, ularda zich laterit pardalar saqlanib qolgan. Qoldiq tog'larda past bo'y kserofit butalar

(akatsiyalar, kazuarinalar, evkaliptlar) o'sadi, ular tevarak-atrofdagi malli-skrab chakalakzorlaridan siyrakroq. Ko'llar atrofidagi ko'l rang jigarrang, sho'rxok va sho'rtob tuproqli erlarda malli-skrab chakalakzorlari bor, bu chakalakzorlarning orasida galofit o'simliklarning to'plamlari uchrab qoladi.

Tekislikning tabiiy sharoiti noqulay bo'lganiga qaramay, Avstraliya uchun ahamiyati juda katta, chunki bu tekislik oltin qazib chiqariladigan eng yirik rayon hisoblanadi. Suv yetishmaganligi sababli bu yerga Suon daryosidan 550 km uzunlikda quvurlarida suv keltirilgan.

G'arbiy platoning chekka janubida N a l l o r b o r k a r s t tekisligi (daraxtsiz tekislik) bor, bu tekislik Eukla sineklizasining janubiy qismini egallaydi. Bu sinekliza miotsen davridagi dengiz svitalari, asosan ohaktoshlar bilan yo'ladi. Karst varonkalari (dongas) ning diametri 4.5 km gacha va o'rtacha chuqurligi 7m gacha boradi.

3.3 Markaziy pasttekislik

Markaziy pasttekislikning kaftday tekis ekankigikishini hayratda qoldiradi, shunga ko'ra, karalarda belgi bilan ko'rsatilgan tizma va tog'lar haqiqtda qadimgi poydevorning do'nglari-keng va juda yotiq gumbazlardan iborat holos. Faqat *Flinders Lofti* gorstli-palaxsali tizmalari va ularning janubiy davomi hisoblangan sohil bundan mustasnodir.

Birdak past relief geografik zonalarining paydo bo'lishi uchun ayniqsa qulay sharoit tug'diradi, lekin zona chegaralarini o'tkazishni qiyinlashtiradi, chunki zonalar orasi keng palaxsalaridan iborat.

Shimol, sharq va janubdan g'arbiy ichki rayonlarga, ayniqsa Eyr ko'liga tomon iqlim kontinentalligi oshib, namlik miqdori esa kamayib boradi. Huddi shu yo'nalishda savannalar va siyrak o'rmonlar tikanli butalarga va chala cho'llarga joy bo'shatadi, tikanli butalar va chala cho'llardan keyin ichki cho'llarning oftobda qovjiragan suvsiz yerlari boshlanadi.

Shimolda Markaziy pasttekislik Karpentariya tekisliklaridan boshlanadi. Bu tekisliklar hozirgi zamondagi va qadimgi allyuvial yotqiziqlardan tarkib topgan, juda yassi bo'lib, ko'p joylari daryolarning sayoz vodiylari bilan bo'lingan. Subekvatorial mussonlar mussonlar iqlimi mavjud ekanligi sababli nam va tipik savannalar vujudga

keladi. Yomg'irgarchilik mavsumida hamma joyni suv bosadi, ayniqsa vodiylarda suv uzoq turib qoladi, shunga ko'ra vodiylarda o'tib bo'lmaydigan botqoqliklar bilan o'ralgan nimjon evkaliptlar o'sadi, holos. Suvi sal-pal qochadigan pastak suv ayirg'ichlarda qattiq bargli evkaliptlarning siyrak o'rmonlari paydo bo'ladi.

Kichkina epizodik ko'llar juda ko'p, ular quruq mavsumda tamomila qurub qoladi, o'rnida esa tuz qatqaloqlari qoladi. Landshaftda termit uyalari ham g'oyatda tipik hisoblanadi. Bular suv ayirg'ichlarda ham, vodiylarda ham uchraydi. Vodiylardagi termit uyalari "o'rmondagi daraxtlardan ko'proq" deyishadi. *Seluin* va *grey* tuzlari oraligida Markaziy havza bor. Bu havza qadimgi poydevorning mezozoy va uchlamchi davr dengizi hamda ko'l yotqiziqlari bilan to'lgan sineklizasidir. Plyuvial epohalarda Markaziy havzani qadimgi Eyr ko'liga quyilgan sersuv daryolar kesib o'tgan. Bu daryolar ishi natijasida sayoz va keng vodiylar vujudga kelgan va yassi suv ayirg'ich tekisliklar arang ko'tarilib kelgan. Bu suv ayirg'ich tekisliklarda "palatkasimon" tepalar qad ko'tarib turadi.

Markaziy havza kontinental tropik iqlimda, Avstraliyaning eng cho'l joyi-Eyr ko'li atrofidagi ayniqsa issiq va quruq rayonda. Yiliga 75 mm dan 150 mm gacha yog'in tushadi, amma yomg'ir ahyon-ahyonda yog'adi. Bazi yillari bir tomchi ham yomg'ir yog'maydi, chang bo'ronlari va quyunlar – "villi-villi" ko'p bo'lib turadi. Yilning ko'pchilik fasllarida tuz qatqalog'i bilan qoplanib yotadigan Eyr ko'li gilli sho'rxok tekisliklar bilan o'ralgan, bu tekisliklarda sho'ra o'tlar yakka-dukkam *lebeda* butalari va majmag'il akatsiyalar uchraydi. Eyr ko'liga shimoli sharq va sharq tomondan *Dayamantina* va *Kuper-krikning* odatda quruq o'zanlari yaqilashib boradi. Bu daryolarning o'zanlari yaqin o'tmishda ko'l botig'ining bukilishi sababli vodiylarning quyi qismlarini chuqur o'yib kirgan.

Eyr ko'lidan janub tomoda *Torrens*, *Gardner* qoldiq sho'r ko'llari va boshqa maydaroq ko'llar bor. Bu ko'llar sharqda Flinders va Lofti tizmalari bilan, g'arbda G'arbiy platoning jarligi bilan o'ralgan tektonik pasaymaning uzunasiga cho'zilgan zonasini egallaydi. Bu ko'llar ham yilning aksari vaqtida tuz qatqalog'i bilan qoplanib yotadi.

G'arbiy plato bo'sag'alaridagi joy 200 m gacha undan ham ko'proq ko'tarilib, *Gibber* tekisliklari degan joylar boshlanadi. *Gibber* tekisliklarining ustida yassi

tepalik Styuart tepalari (231 m) qad ko'tarib turibdi, bu tepaliklar shimolga tomon tikka tushadi va laterit pardasi borligi tufayli saqlanib qolgan "palatkasimon tepaliklar"ning tipik namunasi hisoblanadi. Laterit pardaning sekin-asta yemirilishidan qolgan shag'al hech qanday giyhsiz cho'li biyobon tekislikni qoplab yotadi.

Eyr ko'lidan shimolga tomon *Simpson qum cho'li* (Aruntning mahalliy nomi) davom etadi, bu cho'lda shimol-shimoli g'arbdan janub-janubisharq tomonga chozilgan to'g'ri qator-qator qum tepalari bor. Bu qator yrpalarning balantligi 20-30 m ga baradi; ular necha o'nlab km masofaga cho'ziladi. Cho'l qumlari avvallari spinifeks va uzun ildizli boshqa qattiq g'allagullilar bilan mustahkamlangan edi. Hozirgi vaqtda hadeb mol boqilavermaganidan qum tobora ko'p to'zip ketmoqda.

Markaziy havzalarning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismi toshloq "kriklar o'lkasi" bilan band. *Jo'rajina*, *Diamentina* va *Kuper-krik* o'zanlari kesib o'tgan bu o'lka kremniy parchalrining yahshi silliqlangan shag'ali bilan qoplangan. Sharqiy Avstraliya tog'lariga va Seluin tizmasiga yaqinlashgan sayin "Kruklar o'lkasi" iqlimining aridligi kamayadi. "Kruklar o'lkasi"ning ko'p qismi ko'kimtir-kulrang fillodiali qing'ir qiyshiq sershoh akatsiyalar-brigelou-skrab chakalakzorlari bilan band, bu chakalakzorda pastbo'y evkaliptlar va sukkulent butulkasimon daraxtlar va Gregori baobab daraxtlari ham uchraydi. Yozda yog'ingarchilik vaqtida kriklarga suv to'ladi, joy yam-yashil bo'lib, chamanzorga aylanadi. Daryolarning qayirlarida va daryo vodiylarining terrasa yaqinidagi pastliklarida pastliklarda, ko'llarda va eski o'zanlarda toshloq suvlari binecha hafta turib qoladi.

XULOSA

Avstraliya –yer sharidagi eng kichik materikdir. Uning maydoni atiga 7.6 mln. kv km. shuning uchun Avstraliya materigini baʼzan materik orol deb ham ataydilar. Antarkdida singari, Avstraliya ham butunlay janubiy yarim sharda joylashgan (lotincha *australis*–“janubiy” degan maʼnoni bildiradi).

Avstraliya-eng kichik materik. Maydoni 7631,5 ming km² boʻlib, Evropa maydoninig qariyb $\frac{2}{3}$ qismiga yaqinini tashkil etadi. Materikning eng shimoliy nuqtasi York burni 10° 41' janubiy kenglikda, eng janubiy nuqtasi-Janubiy sharqiy burun 39° 11' janubiy kenglikda. Materik gʻarbdan sharqqa qarab 4100 km masofaga (113°05' sharqiy uzunlikdagi Stip-Poynt burnidan 153°43' sharqiy kenglikdagi Bayron burnigacha) choʻziladi, shimoldan janubga tomon quruqlikning eng serbar joyi atiga 3200 km.

Avstraliya qirgʻoqlarining qiyofasi. Afrika qirgʻoqlari singari, Avstraliya materigi qirgʻlari ham uncha parchalangan emas. Qirgʻoq chizigʻi biroz egri bugri. Yirik qoʻltiqlari faqat ikkita. U ham boʻsa Karpentariya va Katta Avstraliya qʻltiqlaridir. Bass boʻgʻozi Tasmaniya orolini materikdan ajratib turadi. Avstraliya, Tasmaniya oroli va Tinch okeani bilan Hind okeanidagi boshqa kichik orollar Avstraliya ittifoqi hududini tashkil qiladi. Avstraliyaning sharqiy soholida Katta Barʼer rifi bor, bu rif York burnidan tropikka qadar deyarli 2000 km masofaga choʻziladi. Rifning eni shimolda 2 km ga yaqin boʻlib, janub tomonda 150 km ga yetadi. Rif qirgʻoqdan 50 km gacha quruqlikdagi laguna bilan ajralgan.

Geologiyasi . Avstraliyaning geologik strukturasi boshqa materiklarga nisbatan oddiyroq. Unda eng qadimgi (kembriidan ilgari) va gertsin burmali mintaqasi ajratiladi.

Gʻarbi va markazi tekis. Sharqda relef, shuningdek materik maydoni va qiyofasi koʻproq oʻzgargan. Yorilish chiziqlari boʻylab Tasmantisning gʻarbiy chekkasi Tinch okeani tubiga choʻkkan, suvga botmay qolgan kattagina gʻarbiy qismi yuqori koʻtarilgan, natijada Sharqiy Avstraliya togʻlari hosil boʻlgan. Bu togʻlarda qadimgi

jinslar bazalt qatlamlar bilan qoplangan, bu qatlamlar markaziy va janubiy tizmalarda ayniqsa katta maydonlarni egallaydi.

Avstraliya shimolda subekvatorial kengliklar bilan janubda subtropik kengliklar orasida bo'lib, faqat Tasmaniya oroli deyarli butunlay o'rtacha mintaqada. Shunday geografik o'rniga yarasha materik iqlimiga tasir etuvchi asosiy faktorlardan biri quyosh radiatsining yuksakligidir. Quyosh radiatsiyasi shimoli-g'arbda har-bir sm^2 140 k/kalga yetadi.

Materik ko'pchilik qismining iqlimi kontinental. Materikning ichki oblastlariga shimoldan va janubdan bazan juda ichkari kiradigan dengiz havosi (tog'larning yo'qligi shunga imkon beradi) tez isib quriydi.

Avstraliya o'simliklarning turlari juda kam (yuksak darajadagi o'simliklar turlari atiga 1200ta gacha boradi). Avstraliya florasida endemiklar g'oyat ko'p (o'simlik turlaridan 75 % i endemik turlardir). Shunga ko'ra Avstraliya bilan Tasmaniya mustaqil Avstraliya flora oblasti qilib ajratiladi.

Materikning **o'simliklar qoplami** o'zi vujudga kelgan paleogeografik husuayatlarni ham, hozirgi zamondagi gidrotermik sharoitni ham aks ettiradi.

Avstraliyada subekvatorial, tropik va subtropik mintaqalarga hos bo'lgan hamma tuproq tiplari qonuniy tartibda ajralib turadi. Tog'kar va tog'oldi hududlari tuproqlari, tekisliklar shala sho'l va cho'l tuproqlari, daryo vodiylariva delta tuproqlari, botqoq va qotqoq o'tloq tuproqlarini, laterit tuproqlarini qonuniy almashinuvini yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Avstraliya va uning yonidagi Yangi Gvineya, Solomon orollari va Tasmaniya Avstraliya zoogeografik oblastini tashkil etadi. Bu oblastda mezazoy va uchlamchi davr faunasining vakillari-masalan, yerda yashayotgan xaltalilarning ko'pligi bizning zamonamizgacha saqlanib qolgan, yuqori darajadagi sut emizuvchilar esa yo'q desa ham bo'ladi. Xaltalilar va tuban darajadagi boshqa hayvonlar Avstraliyaga bo'r davrida (Avstraliya Yevrosiyodan ajralib ketguncha) Malaya arxipelagi orqali quruqlikdan o'tgan deb tahmin qilishadi. Yuqori darajadagi hayvonlar, jumladan yirtqichlar paydo bo'lgan vaqtgacha Avstraliya Malaya Yevrosiyaga bo'g'lanishdan maxrum bo'gan. Avstraliyani "xaltalilar vatani" ham deb atashadi. Haltali hayvonlar faqat Avstraliya materigida uchraydi.